



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

**TIL, TA'LIM, TARJIMA  
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



**Alisher Navoi**

**VOLUME 4  
ISSUE 3**

**2023**



# **TIL, TA'LIM, TARJIMA**

3-SON, 4-JILD

---

# **ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

НОМЕР-3, ВЫПУСК-4

---

# **LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**

VOLUME-3, ISSUE-4



TOSHKENT-2023

# TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

3-SON, 2023

## Bosh muharrir:

**Mirzayev Ibodulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Ismoilov Salohiddin**  
f.f.n., professor (O'zbekiston)

### TAHRIR HAY'ATI:

<b>Boqiyeva Gulandom</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Bakirov Poyon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Dadaboyev Hamidulla</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Pardayev Azamat</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Yo'ldoshev Qozoqboy</b> p.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Xayrullayev Xurshid</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Rasulov Ravshanxo'ja</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Kiselyov Dmitriy</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Mamatov Abdi</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Labib Said Mohammad Alem</b> f.f.d., dotsent (Afg'oniston)
<b>Safarov Shahriyor</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mirzayev Rahmatulla</b> yu.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Shahobiddinova Shohida</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Sobirov Anvar</b> PhD (O'zbekiston)
<b>Qulmamatov Do'smamat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Nadim Mohammad Humoyun</b> PhD (Afg'oniston)
<b>Mirzohidova Muyassar</b> f.f.d., professor (Qirg'iziston)	<b>Ubaydullayeva Maftuna</b> PhD (O'zbekiston)
<b>Uluqov Nosirjon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Isakova Nodira</b> f.f.n. (O'zbekiston)
<b>Eltazarov Jo'liboy</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Qodirova Barno</b> kotib, PhD (O'zbekiston)
<b>Umurqulov Bekpo'lat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Xasanov Axmad</b> mas'ul kotib, (O'zbekiston)

### ILMIY MASLAHAT KEMGASHI:

<b>To'xtasinov Ilhom</b> p.f.d. (O'zbekiston)	<b>Karimov Suyun</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Raximov G'anisher</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mo'minov Siddiq</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Saidov Sa'no</b> f.f.n., dotsent (Uzbekistan)	<b>Mamatov Abdug'ofur</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Baqoyeva Muhabbat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Suvonova Nigorabonu</b> f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Turniyozov Ne'mat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mukhametkaliyeva Gulnar</b> f.f.n. (Qozog'iston)
<b>Irisqulov Muhammadavaz</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Saidov Sa'no</b> f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Berdaliyev Abduvali</b> f.f.d., professor (Tojikiston)	
<b>Sayfullayeva Ra'no</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Djusupov Maxanbat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Jabborov Xo'jamurod</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
<b>Abdiyev Murodqosim</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Yoqubov Jamoliddin</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	

**Sahifalovchi:** Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-3,2023

**Главный редактор:**

**Мирзаев Ибадулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Исмаилов Салахиддин**  
к.ф.н, доцент (Узбекистан)

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

<b>Бакиева Гуландом</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Бакиров Поён</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Дадабаев Хамидулла</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Пардаев Азамат</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Йулдашев Казакбай</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)	<b>Хайруллаев Хуршид</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Расулов Равшанхужа</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Киселев Дмитрий</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Маматов Абди</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Лабиб Саид Моҳаммад Алем</b> д.ф.н., доцент (Афғонистон)
<b>Сафаров Шахриёр</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Мирзаев Раҳматулла</b> д.ю.н., доцент (Узбекистан)
<b>Шахабиддинова Шахида</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Собиров Анвар</b> PhD (Узбекистан)
<b>Кулмаматов Дусмамат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Надим Моҳаммад Хумоюн</b> PhD (Афғонистон)
<b>Мирзахидова Муяссар</b> д.ф.н., профессор (Киргизистан)	<b>Убайдуллаева Мафтуна</b> PhD (Узбекистан)
<b>Улуков Насиржан</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Исакова Нодира</b> д.ф.н. (Узбекистан)
<b>Элтазаров Жулибай</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Кадирова Барно</b> секретарь, PhD (Узбекистан)
<b>Умуркулов Бекпулат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Хасанов Ахмад</b> отв. секретарь (Узбекистан)

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ:**

<b>Тухтасинов Илхам</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)	<b>Каримов Суюн</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Рахимов Ганишер</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Муминов Сиддик</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Саидов Саъно</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)	<b>Маматов Абдугафур</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Бакоева Мухаббат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Сувонова Нигорабону</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Турниязов Неъмат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Мукхаметкалиева Гульнар</b> к.ф.н. (Казакстан)
<b>Ирискулов Мухаммадаваз</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Бердалиев Абдували</b> д.ф.н., профессор (Таджикистан)	
<b>Сайфуллаева Раъно</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Джусупов Маханбат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Жаббаров Хужамурад</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
<b>Абдиев Муралқасим</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Якубов Жамалиддин</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

**Вёрстка:** Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

ISSUE-3,2023

## Chief Editor:

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. sci.,  
prof. (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

**Ismailov Salokhiddin**  
Cand. of phil. sciences, assistant  
professor (Uzbekistan)

### EDITORIAL BOARD:

<b>Bakieva Gulandom</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Bakirov Poyon</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)
<b>Dadaboev Khamidulla</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Pardaev Azamat</b> Doc. of phil. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Yuldashev Kazakbay</b> Doc. of ped. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Khayrullaev Khurshid</b> Doc. of phil. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Rasulov Ravshankhuja</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Kiselyov Dmitriy</b> Doc. of phil. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Mamatov Abdi</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Habib Said Mohammad Alem</b> doc. of phil. sci. (Afg'oniston)
<b>Safarov Shakhriyor</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Mirzaev Rahmatulla</b> Doc. of jurispr. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Shakhobiddinova Shokhida</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Sobirov Anvar</b> PhD (Uzbekistan)
<b>Kulmamatov Dushmanat</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Nadim Mohammad Humoyun</b> PhD (Afg'oniston)
<b>Mirzokhidova Muyassar</b> Doc. of phil. sci., prof. (Kirghizistan)	<b>Ubaydullayeva Maftuna</b> PhD (Uzbekistan)
<b>Ulukov Nosirjon</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Isakova Nodira</b> Doc. of phil. sci. (Uzbekistan)
<b>Eltazarov Juliboy</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Kadirova Barno</b> Secretary, PhD (Uzbekistan)
<b>Umurkulov Bekpulat</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Hasanov Ahmad</b> senior secretary (Uzbekistan)

### SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

<b>Tukhtasinov Ilhom</b> doc. of ped. sci. (Uzbekistan)	<b>Karimov Suyun</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)
<b>Rakhimov Ganisher</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Muminov Siddik</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)
<b>Saidov Sano</b> Cand. of phil. sciences, assoc. prof. (Uzbekistan)	<b>Mamatov Abdugafur</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)
<b>Bakaeva Mukhabbat</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Suvonova Nigorabonu</b> Cand. of phil. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Turniyazov Nemat</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	<b>Mukhametkaliyeva Gulnar</b> Cand. of phil. sciences (Kazakhstan)
<b>Iriskulov Mukhammadavaz</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	
<b>Berdaliev Abduvali</b> Doc. of phil. sci., prof. (Tajikistan)	
<b>Sayfullaeva Rano</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	
<b>Djusupov Makhanbat</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	
<b>Jabborov Khojamurod</b> Doc. of phil. sci., assoc. prof. (Uzbekistan)	
<b>Abdiev Murodkosim</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	
<b>Yakubov Jamoliddin</b> Doc. of phil. sci., prof. (Uzbekistan)	

**Pagemaker:** Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

## TILSHUNOSLIK

<b>1.R.Rasulov</b>	
E'L ASOSLI GAPLARNING LOKALIS VALENTLIGI.....	7
<b>2.U.Jumanazarov</b>	
O'ZBEK TARIXIY FOLKLORIDA TARIXIYLIK.....	18
<b>3.X.Xayrullayev</b>	
PREDIKATIVLIK HODISASI VA UNING HOZIRGI TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH HOLATI.....	27
<b>4.G.Jumanazarova</b>	
O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA FONETIK TAKRORNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	37
<b>5.N.Xadjimusayeva</b>	
DOSTONLAR TILIDAGI SINONIMLARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI.....	44
<b>6.A.Amonova</b>	
TALIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASH VA UNI RIVOJLANTIRISH.....	53
<b>7.Z.Boynazarov</b>	
"DEVONU LUG'ATI-T-TURK" ASARIDA IFODALANILGAN "INSON" KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	61
<b>8.F.Qo'shnazarov</b>	
GAZETA TILIDA QO'LLANILGAN TANQIDIY MAQOLALARDA SARLAVHALAR STILISTIKASI.....	71
<b>9.A.Xasanov</b>	
O'ZLASHMA TERMINLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI.....	81
<b>10.Y.Djurayeva</b>	
XOTIN-QIZLAR ISMLARI VA NODIR METALL NOMLARI.....	89

## TALIMSHUNOSLIK

<b>11.D.Eshbekova</b>	
PEDAGOGIK FAOLIYATDA KOMPETENTLI YONDASHUV.....	96
<b>12.Z.Sultanova</b>	
OMAR XAYYOMNI BADIY MAHORATI.....	104

## TARJIMASHUNOSLIK

<b>13.N.Abriyeva</b>	
VERBAL MULOQOTNING XUSUSIYATLARI.....	113
<b>14.C.Алламуродова</b>	
ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНГЛОЯЗЫЧНОЙ КУЛЬТУРЫ.....	119

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

## TILSHUNOSLIK

**Rasulov Ravshanxo'ja**  
professor, filologiya fanlari doktori  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Toshkent, O'zbekiston  
rasulovravshanxo'ja@gmail.com

### FE'L ASOSLI GAPLARNING LOKALIS VALENTLIGI

#### ANNOTATSIYA

O'zbek tilidagi fe'llar - holat fe'llari lokalis valentligiga egaligi bilan ham o'ziga xosdir. Chunki holat fe'llarining lokalis aktanti, asosan, agens holati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Aniqrog'i, lokalis valentligini ifodalovchi so'zda o'rin obyektini kuzatilishiga ko'ra u agens holati yuz bergan sathni (joyni) anglatadi. Aytilganlarga ko'ra lokalik aktanti (valentligi) mustaqil sanaladi, alohida ahamiyatli bo'ladi. Shuningdek, lokalis valentligini ifodalovchi so'z gapda, asosan, lokativda (o'rin kelishigida) hamda ko'makchili shakllarda kelishi bilan ham ajralib turadi.

Holat fe'llarining lokalisi, asosan, ot turkumi orqali namoyon bo'ladi. Lokalis valentligi o'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarida voqealanadi.

**Kalit so'zlar:** lokalis valentligi, lokalis aktanti, lokativ, ot ko'makchilar, sath.

**Rasulov Ravshankhoja**  
professor, doctor of philological sciences  
Chirchik State Pedagogical University  
Tashkent, Uzbekistan  
rasulovravshankhoja@gmail.com

### LOCAL VALENCE OF VERB-BASED SENTENCES

#### ABSTRACT

Verb - verbs of state in the Uzbek language have peculiar features of valence of locale. Since the local actant of these verbs is directly related to the state of the agent (sometimes the counterparty). The implementer of the valency of the localis denotes the place, the state of the agent occurring, characterizes the states in relation to the place, due to its expression of local relationship, therefore it is semantically functionally active, independent.

The form of a word that realizes the valency of the locale in constructions is fixed in the main locative case. Consequently, the locative formant is a typical categorical form that forms the realizer of the locality of stative verbs in speech. The word implementing the valency of the locale can occur in sentences in postpositional forms. Afterwards, the nested forms implementing the valence of the localis differ in speech activity, forming a contextual synonym with a typical word form, realizing the local actant. The valence of localis is observed in state verbs with integral semes "duration", "result of action", "execution", "imagery", "physiological" and "mental".

**Keywords:** valence of localis, local actant, locative, postpositional nouns, place.

**Расулов Равшанходжа**

профессор, доктор филологических  
наук

Чирчикский государственный педагогический университет

Ташкент, Узбекистан

rasulovravshankhoja@gmail.com

## ЛОКАЛЬНАЯ ВАЛЕНТНОСТЬ ГЛАГОЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

### АННОТАЦИЯ

Глагол - глаголы состояния в узбекском языке имеют своеобразные особенности валентностью локалиса. Так как локалисный актанта данных глаголов непосредственно связан с состоянием агенса (иногда контрагента). Реализатор валентности локалиса обозначает место, происходящего состояние агенса, характеризует состояния по отношению к месту, в силу выражения им локального отношения поэтому он является семантика-функционально активным, самостоятельным. Оформление слова, реализующего валентность локалиса в конструкциях, закрепляется в основном местном падеже. Следовательно, формант местного падежа является типичной категориальной формой, формирующие в речи реализатор локалиса глаголов состояния. Слово реализующие валентность локалиса, может встречаться в предложении в после вложенных формах. После вложенные формы реализующие валентность локалиса отличаются речевой активностью, образуя контекстуальный синоним с типичной словоформой, реализующий локалисный актанта. Валентность локалиса наблюдается в глаголах состояния с интегральными семемами "продолжительность", "результат действия", "исполнения", "образность", "физиологическое" и "психическое".

**Ключевые слова:** валентность локалиса, локалисный актанта, локатив, послеложные имена существительные, место.

O'zbek tilidagi holat fe'llarining lokalis[1] aktanti agens (ba'zan kontragent) holati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. U muayyan holatdagi agensga "xizmat qiladi", u bilan dialektik bog'liqlikda kuzatiladi. Aniqrog'i, lokalis valentligini reallashtiruvchi so'zda o'rin ifodalanishiga ko'ra ushbu so'z agens holati yuz bergan o'rinni anglatadi. Shu jihatdan lokalis aktanti mustaqil sanaladi. Lokalis valentligining realizatori fe'l ma'nosidagi holatni o'rni mmunosabatiga ko'ra xarakterlashi, lokal munosabat[2] ifodalashi bilan semantik - funksional faol bo'ladi.

Lokalis valentligini reallashtiruvchi so'zning gapda, asosan, o'rin kelishigi (lokativ)[3]da kelishi tabiiydir. Chunki lokativli so'z shaklidan anglashilgan predmet agens holatining muayyan o'rin - joyda yuz berishini aniq bildiradi[4], ya'ni lokalis aktanti bo'ladi. Demak, o'rin kelishigi holat fe'llarining lokalis aktantini reallashtiruvchi so'zni nutqda shakllantiradi,



so'z formasi - nutq birligi hosil bo'ladi. Asosan shu kelishikdagi nutq birligi fe'lda ifoda topgan jarayonning bajarilishi o'rin bilan bevosita bog'lanadi. Boshqacha aytganda, o'rin kelishigi qo'shimchasi fe'l boshqaruvli obyektli birikmani tuzadi, lokal munosabat anglashiladi.

Shunisi ham xarakterliki, holat fe'llari lokalis valentligining realizatori doimiy so'z formasidan boshqacha shakllanishda ham kuzatiladi. U gapda ko'makchili formalarda qo'llanadi. Ushbu ti pdako'makchi vositalar ot vafe'l ma'nolarini biriktiruvchi ifodaberadi. Semantik sintagma (lokativ sintagma) tuziladi.

Gap konstruksiyalarida sintaktik turlicha tuzilishiga qaramay, sintetik va analitik formadagi nutq birliklari o'rin ma'nosini to'la ifodalaydi. Ayni vaqtda lokalis valentligini reallashtiruvchi ko'makchili formalar nutqiy faolligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ular lokalis aktantini reallashtiruvchi doimiy so'z formasi bilan kontekstual sinonimni hosil qiladi.

Holat fe'llarining lokalis aktanti gaplarda, asosan, otda reallashadi. Ushbu turkum birliklari gapda doimo qayd etilgan bo'ladi, o'rin holi vazifasini o'taydi. Lokalis valentligiga ega holat fe'llari gapda muayyan pozitsiyada kesim, ba'zan aniqlovchi vazifasida keladi.

Lokalis valentligi o'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarida kuzatiladi.

Lokalis valentligining otda reallashishi. "Davomli", "harakat natijasi" va "ijro" integral semali holat fe'llarining lokalis aktantlari otda reallashadi. SHunga ko'ra u (ot) semantik-kommunikativ jihatda aniq bo'lib, makonning ma'lum qismi, nutqtasi bilan bevosita bog'lanib turadi. Bu esa otning shunday semantikaga uzual egaligidan kelib chiqadi.

Turmoq, tunamoq, yotmoq, qolmoq, o'tirmoq "davomli", to'xtamoq "harakat natijasi", salqinlamoq, poylamoq "ijro" integral semali holat fe'llarining lokalis aktanti sath (o'rin - joy) bo'ladi. Chunki agensda yuzaga kelgan, agens ega bo'lgan ushbu holatlar bevosita muayyan holatlarning sodir bo'lishida birlamchi tashqi asos sanaladi. Uning muhimligi makonligidan, materiyaning mavjudlik, yashash manbai ekanligidan va bu qonun kuchiga egaligidan kelib chiqadi. Masalan: Shu bolxonada tunadi (Shuhrat). U ayvonda yotar (H.Nazir). Uyda go'zal juvon bilan ikkimiz qoldik (S.Ahmad). Batalon qishloqda to'xtadi (Toshkent oqshomi)... U bog'da salqinladi (O'zbek xalq ertagi). Ko'rinadiki, fe'l boshqaruvli birikma komponentlari sememalari uchun klassema vazifasini "sath" semasi o'taydi.

O'tirmoq va yotmoq "davomli" integral semali holat fe'llari lokalis valentligining realizatori agens holatining suv yo'lga tegishli joyda, uning muayyan qismida yuz berishini anglatadi: Ariq labida birpas o'tirdi (F.Musajonov). Polvon ota yaylov etagidagi yoyilib oqayotgan soy labida yotibdi (H.Nazir). Ko'rinadiki, gap konstruksiyalarida lokalis valentligini reallashtiruvchi muayyan a'zoni ifodalovchi ot, metoforik ko'chma ma'noda, o'rin - joy ma'nosida keladi. Bu nutq fakti, nutq hodisasi sanaladi. Uning sath ifodasini berishi sintaktik shakllanishiga, tobe komponentidagi muayyan predmet bilan bog'lanishiga, u bilan butun va qism munosabatiga kirishishiga, agens holatining sodir bo'lish o'rnini anglatish maqsadida qo'llanishiga ko'ra yuz beradi.

O'zbek tilidagi holat fe'llarining lokalis aktanti (sath) ko'makchi otlarda ham ifodalanadi. Aniqrog'i, holat fe'llarining lokalis valentligi ot+ko'makchi ot+da modeli sintaktik birliklarda reallashib, o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo'ladi.

"Sath" arxisemasiga ko'ra umumlashuvchi ko'makchi otlar sintaktik konstruksiyalarda doimo prepozitiv komponenti bilan kelib, u bilan tegishlilik munosabatini ifoda etuvchi aniqlovchi+aniqlanmish aloqasiga kirishib, sintaktik butunlik sifatida holat fe'llari lokalis valentligining realizatori hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu nutq birliklarida qatnashgan ko'makchi otlarning muayyan kelishikli shaklda rema komponenti bilan aloqasi gapning holat fe'lli kesimi talabiga ko'ra yuz beradi. Bu bevosita ko'makchili formalarning gapning konstruktiv birligi bo'lishini, gap semantikaining mantiqiyli va ijtimoiy xarakterini yuzaga keltiradi.

Fikrimizcha, so'z yuritilayotgan tipda o'rin ifodasining aniqligi yakkaso'zdan anglashilgan shu ifodaga nisbatan kuchliroq, to'laroq yuzaga chiqadi. Aytmoqchimizki, avtosemantik+sinsemantik so'z qolipidagi nutq birliklarida sath ifodasi ko'makchi komponentda umumiy (mavhum) bo'lib, uning konkretlashishi bevosita prepozitsiyadagi so'z vositasida yuz beradi. Chunki u mustaqil so'z sifatida gapda muayyan pozitsiyada konkretlashtirish vazifasini bajarish imkoniga ega bo'ladi. Aniqrog'i, u gapda ham nazarda tutilgan maqsadda qo'llanadi. Bu semantik va sintaktik - pozitsion planda ham isbotlanadi. Shu sababli ko'makchili nutq birliklarida holat yuz bergan sath ancha anglashilib turadi. Ko'rinib turibdiki, ko'makchi otlar ma'nosidagi umumiy sath nutqiy vaziyatda, "birikmada" reallashishiga, ot prepozitiv (tobe) komponentiga ko'ra "individuallashadi". Demak, ko'makchi otlarda qayd etilgan sath sintaktik birlikda reallashishi tufayli muayyan predmet bilan bevosita bog'lanib, unga tegishligi ta'kidlanib, birgalikda o'rin - joy sifatida kelishi jihatidan yuqoridafikr yuritilgan tipdan (otdan) farq qiladi. Boshqacha aytganda, agens holati ko'makchili so'z formasidagi predmetning muayyan qismida, muayyan sathda sodir bo'ladi.

O'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarining lokalisi ot ko'makchili sintaktik birliklar orqali voqelashadi.

Turmoq "davomli", to'xtamoq "harakat natijasi", gavdalanmoq "obrazli" va uyalmoq, o'ng'aysizlanmoq "psixik" integral semali holat fe'llarining lokalisi oldida komponentli analitik formada kuzatiladi. Ushbu tipda agens holatining qopqa (moslama), sath, kishi a'zosi va shaxs kabilar oldida yuz berishi ifodalanadi. Masalan: Eshik oldida bir juvon turardi (S.Ahmad). Xaroba, ba'zan obod ko'chalardan yurib, atrofi yog'och panjarali kattakon bir hovli oldida to'xtadik (A.Qahhor). Ko'z oldida Arslon gavdalandi (Mirmuhsin). U o'rtoqlari oldida uyaladi (Almanax).

Turmoq, o'tirmoq, qolmoq "davomli" integral semali holat fe'llarining lokalisi ustida, bo'yida, tagida, o'rtasida, boshida, yonida, ichida, ichra va uzra komponentli nutq birliklarida reallashishiga ko'ra o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ustida ko'makchili sintaktik birliklarda agens holati jonli yoki jonsiz narsalarning ust qismida bajariladi. Bunda bir predmetning pastki qismi boshqasining ustki qismiga - bir-biriga tegib turadi, birikadi [5]. Masalan: Otning ustida bir yigit turibdi (Gulixiromon). Sakkiz qirrali oltin taxt ustida Husayn Boyqaro o'tiribdi (Oybek).

O'zbek tilshunosligiga oid ayrim manbalarda bo'yi ko'makchisi asosan "... vaqt bildiruvchi so'zlar bilan birga kelib, harakat-holatning shu so'zlar ifodalangan vaqt doirasida "davomli"ligi ma'nosini bildiradi... [6] deyilsa, boshqalarida u "ba'zan payt bildiruvchi so'zlardan boshqa so'zlar bilan kelganda, makon - joy ma'nosi bilan birga vaqt - payt ma'nosi ham ifodalanadi..." [7], deb ta'kidlanadi. Demak, manbalarda bu ko'makchining, asosan, vaqt, ba'zan o'rin ma'noli so'zlar bilan kelishi va har ikki holda ham vaqt ma'nosini ifodalashi alohida qayd etiladi.

Shunisi muhimki, holat fe'llarining lokalisi aktantini reallashtiruvchi ko'makchili formaning etakchi qismi o'rin-joy ma'noli so'zlardan bo'lib, uni sintaktik jihatdan shakllantirilgan bo'yi ko'makchisi gap -da formanti bilan kelib, semantik jihatdan butunlay o'rin ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladi. SHunga ko'ra u o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Aniqrog'i, birinchidan, bo'yi ko'makchisi o'rin-joy ma'noli so'z bilan analitik forma tuzishiga, ikkinchidan, u lokativda bo'lishiga, uchinchidan, bu nutq birligi holat fe'li bilan bog'lanishiga (u tomondan boshqarilishiga) - holat fe'li lokalisi valentligining realizatori bo'lishiga, ya'ni holat fe'li semantik imkoniga ko'ra o'rin aktantini bevosita talab qilishiga, to'rtinchidan, gapda ifodalangan fikrning mantiqiy - obyektiv yo'nalishiga ko'ra ot+bo'yi (-da) modeli nutq birligi o'rin - joy ma'nosini ortiq darajada konkret ifoda etadi. Demak, bu holda agens holatining harakatlanish chizig'i va o'zan chetida sodir bo'lishi anglashiladi. Qiyoslang: Yo'l bo'yida g'isht tashigan samosval turardi (S.Ahmad). O'tiribman

daryo bo'yida (Zulfiya).

Tagida komponentli analitik formada agens holati vertikal vaziyatdagi qurilmaning pastki qismida, uning quyi nuqtasiga eng yaqin joyda yoki bevosita uning tag (ostki) qismida yuz beradi. Masalan: Zinaning tagida turibdi (A.Qahhor). Soyabon tagida uchburchak qilib quyilgan ikkita skameyka turibdi (O.Yoqubov).

Tagida so'zi bilan asosiy ma'nosiga ko'ra bir xil ostida sinonim birlik ham agens holatining bevosita muayyan predmetning tag, ost qismida yuz berishini bildiradi. Ammo ko'proq adabiy tilga xos ostida so'zi "ko'pincha umumiy - noaniq ma'no ifodalanishi"[8] bilan shunday ma'noni o'ziga nisbatan aniqroq anglatuvchi, asosan so'zlashuv stiliga xos tagida so'zidan farq qiladi. Tagida so'zi ma'nosida muayyan predmetning bevosita ichki tag qismi tushunilishi qat'iydir, aniqdir.

Turmoq "davomli" integral semali holat fe'lining lokalis aktanti o'rtasida komponentli analitik formada ham qayd etiladi. Agens holati qurilma markazida (o'rta qismida) sodir bo'ladi: Nigora uyning o'rtasida qimirlamay turardi (S.Ahmad).

Boshida komponentli nutq birliklarida agens holati qurilma va maydonning boshlanishida, eng yuqori qismida (teyasi) yuz beradi: Men ko'prik boshida birpas turdim (A.Qahhor). Mozorning boshida turmakdadurman sarhisob aylab (G'.G'ofur).

Turmoq "davomli" holat fe'lining lokalis yonida ko'makchili formada reallashganda, agens holati qurilma yonida, unga juda yaqin gorizontal yo'nalishdagi o'rinda sodir bo'ladi: Men pechka yonida turgan chelakni oldim (F.Musajonov). davomli holat fe'lining lokalis reallashgan analitik formada ot ko'makchi yonboshida variantida ham keladi. Denotativ ma'nosiga ko'ra bir xil yonida va yonboshida so'zlaridan keyingisi agens holatining qurilmaga juda yaqin joyda, deyarli u bilan biror tomoniga ko'ra tutashgan nuqtasida, qurilmaning (bosh) tarafida yuz berishini anglatishi va nutqda kam qo'llanishiga ko'ra ajralib turadi. Shuningdek, bu holda predmetlarning gorizontal joylashishi, mosligi buziladi. Qiyoslang: Chelak pechka yonida turibdi. (G'uncha). "Davomli" holat fe'lining lokalis reallashgan analitik formada ot ko'makchi yonboshida variantida ham keladi. Denotativ ma'nosiga ko'ra bir xil yonida va yonboshida so'zlaridan keyingisi agens holatining qurilmaga juda yaqin joyda, deyarli u bilan biror tomoniga ko'ra tutashgan nuqtasida, qurilmaning (bosh) tarafida yuz berishini anglatishi va nutqda kam qo'llanishiga ko'ra ajralib turadi. Shuningdek, bu holda predmetlarning gorizontal joylashishi, mosligi buziladi. Qiyoslang: Uyning yonboshida chelak turibdi (O'zbek xalq ertaklari).

Turmoq "davomli" holat fe'lining lokalis ichida komponentli nutq birligida ham reallashadi. Agens holati qurilma va yopinchiqning ich qismida yuz beradi. Qiyoslang: Arslon xona ichida nima qilishini bilmay turdi (Mirmuhsin). Chimmat ichida soqoli selkillagan bir chol tirjayib turibdi (O.Muxtorov).

Turmoq "davomli" holat fe'lining lokalis ichra ko'makchili analitik formada ham qayd etiladi. Lokativ sintagmada agens holatining muayyan territoriyada - ochiq, sayhon yer ichida sodir bo'lishi anglashiladi. Bunda o'rin ma'nosi predmetning qaysi nuqtasi, sathi bilan bog'lanishiga ko'ra nisbiy aniqligi bilan ajralib turadi. Asosan poetik uslubga xos bunday ko'makchili formada ko'tarinkilik, ekspressivlik kuzatiladi, so'zlovchining ijobiy munosabati ham ifodalanadi. Shunga ko'ra ichra ko'makchili nutq birliklari -da formantli va ichida variantli sinonim nutq birliklaridan farq qiladi. Qiyoslang: Emas oson bu maydon ichra turmoq... (Navoiy). Emas oson bu maydonda turmoq. Emas oson bu maydon ichida turmoq. Yana qiyoslang: Qilichlashib maydon ichra o'lmadim (Folklor).

Akademik A.N.Kononov yaratgan o'zbek tilining ilmiy grammatikasida uzra ko'makchisining hozirgi o'zbek tilida juda kam uchrashi, asosan poetik asarlardagina qayd etilishi alohida ta'kidlanadi va uning adabiy til, so'zlashuv nutqi uchun odatiy sanaluvchi ustiga, ustida ko'makchilariga mos kelishi aytiladi[9]. Bu fikr kesimi holat fe'lli gaplarga ham to'la muvofiqdir. Anig'i, qolmoq va o'tirmoq "davomli" holat fe'llari lokalis valentligining

realizatori sifatida uzra ko'makchili formalar ham keladi. Ular nutq birligi sifatida ko'pincha she'riy misralarda uchrab turadi, agens holatining muayyan predmetning (buyumning) ustki qismida yuz berishini anglatadi. Masalan: Ikki jumla yozilgan shu xat stol uzra ... qoldi (G.Nurullayeva). Ushbu gapda uzra ustida ko'makchisi bilan sinonimik aloqa hosil qiladi. Ustida so'zini gapga kiritish undagi muayyan xabarga halal bermaydi, gapning mazmuni to'la saqlanadi. Ammo bu holda avvalgi sinonimik nutq birligiga nisbatan o'rin - joy ma'nosi yana ham konkretlashadi. Chunki ust (-ida) ko'makchisida o'rin - joy ma'nosi uzual ortiq, yaqqoldir. Demak, bu ko'makchilarni almashtirish o'rin - joy ma'nosining ortiq darajada konkretlashishiga olib keladi. Qiyoslang: Ikki jumla yozilgan shu xat stol ustida qoldi. Ammo bu variantda ekspressivlik-ifodalilik darajasi avvalgisidan farqli sezilarli kamayadi, "torayadi". Uzra ko'makchili sinonimik formada esa ham informatsiya, ham konnotatsiya ifodalanadi. Ustida so'zlashuv nutqiga, uzra poetik nutqqa xosligi, poetik ohangi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra she'r muallifi keltirilgan misralarda faqat xabarni emas, shuningdek, ekspressivlikni, ijobiy emotsional munosabatni ham berish maqsadida uzra so'zidan oqilona foydalanadi. Yana qiyoslang: Ne baxtdir MGUning kafedrasida shogirdlik kursisi uzra o'ltirish (G'.G'ulom).

Ayrim manbalarda uzra "harakat predmetning ust qismiga yo'nalganligini, biror narsa vositasida bajarilishini bildiradi"[10], deb ta'kidlanadi. Bu fikrning "harakat ... biror narsa vositasida bajarilishini bildiradi" qismining tasdig'i sifatida G'.G'ulomning yuqoridagi bir band she'ri keltiriladi. Ko'rinadiki, fikr mullifi gapda harakat tushunchasining ifodalovchisi sifatida holat fe'lining arxaik formasini keltiradi. O'(l)tirmoq "davomli" holat fe'li sifatida holat ma'nosini anglatadi. Sintaktik konstruksiyada esa ot+uzra modeli analitik forma harakatning biror narsa vositasida bajarilishini emas, balki davomiy holatning ot ma'nosida reallashgan buyumda sodir bo'lishini bildiradi. Shuningdek, ko'makchili formaning o'rin-joy ma'nosida qayd etilishi quyidagi sintaktik konstruksiya orqali, analitik forma bilan kontekstual sinonimni hosil qiluvchi ti pik kelishikli so'z formasini keltirish orqali ham isbotlanadi. Qiyoslang: Ne baxtdir MGUning kafedrasida shogirdlik kursisida o'ltirish.

To'xtamoq "harakat natijasi" holat fe'lining lokalisi orasida komponentli "so'z birikmasida" qayd etiladi. Bunda agens holati buyumlar orasida (oralig'ida) sodir bo'ladi. Masalan: Qori Niyoziy partalar orasida ...to'xtab...(A.Qahhor).

Tutashmoq "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'lining lokalisi tomonidan ko'makchili shaklda kelishiga ko'ra xarakterlanadi. Bunda agens holati harakatlanish chizig'ining ma'lum qismida yuz beradi. Masalan: "Soyuz 35" kemasi stantsiyaga o'tish bo'lmasi tomonida tutashdi (Ro'znoma). Bu holda lokalisni anglatuvchi so'z birikmasining ko'makchili bo'lagi -dan affiksli bo'lishiga ko'ra holatning muayyan o'rin-joy yaqinida (tomonida ko'makchili birikmada shunday ma'no munosabati ifodalanadi) emas, balki muayyan predmetning o'zida, uning muayyan nuqtasida sodir bo'lishini ifodalaydi. Qiyoslang: "Soyuz 35" kemasi stantsiyaga o'tish bo'lmasi tomonida tutashdi. Sintaktik birliklarda mustaqil so'z bilan kelgan tomon ko'makchisi o'zining asosiy yo'nalish ma'nosi[11] bilan birga makon belgisiga ham egadir. U mavhum holda o'rin-joy bilan bog'lanadi. Undagi makon ma'nosi so'zning -dan qo'shimchasi bilan qo'llanishidan va fe'lga birikishidan yuzaga kelib, gapning mazmun jihatiga ko'ra kuchayadi, nutqiy bo'rtadi. Ayni vaqtda ko'makchi bilan kelgan prepozitiv ("tobe") qism ham fakultativ joy ma'nosiga egadir. Demak, lokalis valentligining ifodalovchisi - "birikma" konstruksiyasi o'rin ma'nosini aniq ifodalaydi. Kontekstda chiqish kelishigidagi so'z doimiy ma'no vazifasidan chekinib, vaqtincha nutq hodisasi sifatida agens holatining yuzaga kelish o'rnini bildiradi.

O'zbek tilshunosligiga oid ko'pgina manbalarda og'zi(-da) ot ko'makchisi tilga olinmaydi, u haqda biror fikr bildirilmaydi. Vaholanki, bu so'z mustaqil ma'noli bo'lishidan tashqari, ba'zan yordamchi-ko'makchi bo'la olishi bilan ham ajralib turadi. U nutqda, qurshov birliklari bilan semantik-sintaktik voqqlashishda binar semantik munosabatda bo'la olish

imkoniga egadir. U ham ko'pincha ot ko'makchilar kabi prepozitsiyadagi so'z (ot) bilan atributiv aloqaga kirishib, fe'ning talabiga ko'ra o'rin kelishiga bilan keladi. Uning ko'makchi ot tabiati nutqiy vaziyatda (kontekstda), prepozitsiyadagi ot bilan lokal munosabatni ifodalovchi lokativ sintagmani tuzishda yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra u ko'makchi sifatida o'rin-joy ifodali prepozitsiyadagi otga reallashgan predmetni - makonning nisbat aniq nuqtasini anglatishiga ko'ra baholaydi. Demak, uning lokal munosabatni ifoda etishi, birinchidan, o'rin kelishiga bilan shakllanishiga, ikkinchidan, so'z formasi holda prepozitiv ot bilan semantik-sintaktik bog'lanishiga, uchinchidan, atributiv "birikma"da ifodalangan ma'noga ko'ra fe'l ma'nosidagi holatni - holat yuz bergan o'rinni aniq anglatishi bilan hosil bo'ladi. U gapda ma'lum o'rinlardagina ko'makchi sifatida qo'llanadi.

Og'zida so'z formasining nutqiy ko'makchi vazifasida kelishi uning gapdan tushib qolganda, "birikmada" ifodalangan tushunchaga - gapning umumiy mazmuniga ta'sir qilmasligida ko'rinadi. Uning sintaktik reallashmasligi faqat ot ma'nosidagi o'rin-joyning umumiy qayd etilishiga, ya'ni holatning predmetning qaysi nuqtasida yuz berishining mavhumlanishigagina olib keladi. Holat yuz bergan o'rin-joy ifodasi to'la saqlanadi. Demak, bu holda ko'makchi otning qo'llanishi sathning yaqqol, aniq ifodalanishiga olib keladi. Bu aniqlik esa o'z navbatida gapda ifodalangan fikrning aniqlanishiga, tinglovchiga muayyan hodisa, holat, harakat kabilar sodir bo'lgan o'rin-joy haqida to'liq xabar berilishiga xizmat qiladi.

Cho'nqaymoq "fiziologik" holat fe'li lokalis valentligining realizatori - ko'makchili forma shaxs jismoniy o'zgarish holatining suv chuqurchasining ochiq qismiga (teshikka) eng yaqin joyda, uning yuqori qismida (ustida) sodir bo'lishini ifodalaydi. Qiyoslang: Suhrob tashnov og'zida cho'nqayib ... Suhrob tashnov ustida cho'nqayib...

O'zbek tilidagi holat fe'llarining lokalis aktanti vazifasida ba'zan sathdan boshqa predmetlar ham keladi. Bunday lokativ sintagmalarda ham lokal munosabat ifodalanib, agens holati o'rin obyektiga ko'ra konkretlashadi.

Gap konstruksiyalarida "davomli" va "obrazli" integral semali holat fe'llarining lokalis sifatida kishi a'zosi, buyum va o'simliklar ham ishtirok etadi.

Shu ham xarakterliki, kishi a'zosi, buyum va o'simlik ma'noli leksemalarda o'rin ma'nosi okkazonal, faqat nutqda, ya'ni so'zning lokativ affiksi bilan shakllanishiga, fe'l bilan obyektli birikmani tuzishiga, agens holati amalga oshgan o'rinni anglatish maqsadida qo'llanishiga ko'ra yuzaga keladi. Shuningdek, lokalis valentligini ifoda etuvchi ushbu so'zlar nutq faoliyatida o'rin ma'nosini ham berish imkoniga ega bo'ladiki, bu imkoniyatning voqe bo'lishi sintaktik qurshov qismlarining ta'sirida, fe'ning gap mazmuniga, uning amaliy birliklarining muayyan ma'no bilan reallashishiga faol ta'sir qilishi bilan bog'liq holdayuz beradi. Ayni vaqtda fikr yuritilayotgan tipda agens holati sodir bo'lgan o'rinning konkret anglashilishi bevosita kishi a'zosi, buyum va o'simliklarning aniqligidan, shu predmetlarni ifodalovchi til birliklarining tasavvurda muayyan predmet bilan bevosita bog'lanishidan kelib chiqadi.

Qolmoq "davomli" va gavgaldanmoq "obrazli" integral semali holat fe'llarining lokalis aktanti vazifasida kishi a'zosi keladi. Agens holati shaxsning muayyan a'zosida yuz beradi. Masalan: Kalit uning qo'lida qoldi (A.Qahhor). ...Peshonasiga tekkan mayin soch tolalari, muloyim tabassumi ko'z oldimda bir zum gavgaldanar (O.Yoqubov). Uning ko'z oldida Arslon gavgaldandi (Mirmuhsin).

O'tirmoq va yotmoq "davomli" integral semali holat fe'llarining lokalis ishtirokchisi buyum bo'ladi. Agens holati muayyan buyumda yuz beradi: Abbasxon o'rnidan qo'zg'algisi kelmay, eski duxoba kresloda o'tirardi (Mirmuhsin). ...divanda Shukur yotardi (N.Normurodov).

O'tirmoq "davomli" holat fe'lining lokalis vazifasini o'simlik ham o'taydi. Agens holati muayyan o'simlikda sodir bo'ladi. Qiyoslang: Daraxtlarda boyqushlar ko'zlarini



chaqchaytirib o'tirishibdi (Mirmuhsin).

Shunday qilib, holat fe'llarining lokalis aktanti vazifasida ba'zan sathdan boshqa predmetlar ham keladi. "Davomli" va "obrazli" integral semali holat fe'llarining lokalis aktanti sifatida kishi a'zolari, "davomli" integral semali holat fe'lining lokalis aktanti bo'lib buyum va o'simliklar qatnashadi.

O'zbek tilidagi "davomli" va "ijro" integral semali holat fe'llari lokalis valentligi ba'zan sifat+daqoli pidagi so'zdavao'rin ravishidaham reallashadi, agens holati yuz bergan sath ifodalanadi.

Lokalisni ifodalovchi otlarda o'rin ma'nosi aniqligi va xususiyliigi bilan, ushbu so'z formalarida esa o'rin ma'nosi mavhumligi va umumiyliigi bilan ajralib turadi[12]. Aniqrog'i, fikr yuritilayotgan tipdaagens holati yuz bergan joy - tomon ishoraqilinishi, umumiy tarzda ko'rsatilishi bilan xarakterlanadi. Demak, lokalis valentligining realizatori vazifasidagi til va nutq birliklarida ham agens holatining muayyan o'rinda yuz berishi anglashiladi. Ammo bu o'rin makonning muayyan qismi, nuqtasi bilan aniq bog'lanmasligiga, u kengligiga, noaniqligiga ko'ra ajralib turadi.

Qolmoq "davomli" integral semali holat fe'lining lokalis yiroq joy bo'ladi. Agens holati olis joyda sodir bo'ladi: Qurbonlar dafn qilinayotganda, biz qabrdan yana ham uzoqda qoldik (A.Qahhor). Ona eling uzoqda qoldi (E.Vohidov). Ajib bolaligim qoldi uzoqda (A.Ori pov).

Aniqlikdan ortiq darajada chekinish, mavhumlik, umumiylik kabi ma'nolar so'zning -lar qo'shimchasini olishi bilan yana ham kuchayadi, bo'rtadi. Chunki -lar noaniqlikni oshiradi, fikrning muayyan o'rin bilan bog'lanishini "butunlay" tarqatadi. Bu -lar affiksining ko'plik ma'nosini ifodalashidan kelib chiqadi. Bunda fikrning, diqqat-e'tiborning mayyan o'rin-joy bilan bog'lanishi ancha "xiralashadi". Ammo, shunga qaramasdan, ayni vaqtda ijobiy bo'yoq, ekspressivlik yuzaga keladi. Bu holda -lar qo'shimchasining doimiy ma'nosi saqlanib, shu ma'no asosida uzual ifodaning "o'sishi" yuz beradi. Aniqrog'i, -lar affiksi nutqiy polifunksional xarakterda bo'lib, ma'no jihatdan universallasadi: ham miqdoriy ortiqlik, ham ekspressivlik ifodalaydi. Qiyoslang: Uzoqlarda qoldi tug'ilgan uyim (A.Ori pov). Uzoqlarda qoldi diyorum (E.Vohidov).

Salqinlamoq "ijro" integral semali holat fe'li lokalis valentligining realizatori agens holatining muayyan sathda - sathning biror nuqtasida yuz berishini ifoda etadi: Unda fil o'z bolalarini salqinlatib, ... (H.Nazir).

Xullas, holat fe'llarining lokalis aktantini qayd etuvchi til va nutq birliklari o'rin ma'nosini mavhum, umumiy holda ifoda etadi. Shu jihatdan ular holat fe'llarining lokalis valentligini reallashtiruvchi otlardan farq qiladi.

Yuqorida fikr yuritilgan lokalis valentligiga ega turmoq, tunamoq, yotmoq, qolmoq, o'tirmoq, "davomli", to'xtamoq, tutashmoq "harakat natijasi", salqinlamoq, poylamoq "ijro", gavdalanmoq "obrazli", cho'nqaymoq "fiziologik", o'ng'aysizlanmoq, uyalmoq "psixik" integral semali holat fe'llari valentlik imkoniga ko'ra ochiq pozitsiyalarini to'ldirib keluvchi nutq birliklarini boshqaruvi, ya'ni boshqaruv qobiliyati jihatidan ham xarakterlanadi. Ular shu nuqtada kontragent valentligiga ega holat fe'llaridan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, lokalis valentligiga ega ushbu holat fe'llarida boshqaruvning har ikki turi - kuchli va kuchsiz boshqaruv kuzatiladi.

Turmoq, tunamoq, yotmoq, qolmoq, o'tirmoq, "davomli", to'xtamoq, "harakat natijasi", salqinlamoq, poylamoq "ijro", gavdalanmoq "obrazli" integral semali holat fe'llari (hokim komponent) lokalis valentligining realizatori (tobe komponent) bilan kuchli boshqaruv munosabatiga kirishadi. Chunki ushbu holat fe'llari bilan boshqariluvchi (tobe) so'zlarda ifodalangan ma'no munosabatlari orasidagi aloqa jonli, real aloqa, kuchli bog'lanish hisoblanadi[13]. Shuningdek, ayni aloqa, kuchli bog'lanish bevosita hokim so'zlar - holat fe'llari, ular ma'nolarining talabi, tortish kuchi bilan yuzaga keladi.

Shunga ko'ra nazarda tutilgan holat fe'llari bilan lokalisni ifoda etuvchi boshqariluvchi so'z formalari orasidagi bog'lanish kuchli bog'lanishdir. Yana qiyoslang: Jim-jit, bo'm-bo'sh xonalarning birida, divanda u yechinmagan holda yotardi (Mirmuhsin). Yo'l bo'yida bugun kuni bilan bizga g'isht tashigan samosval turardi (Said Ahmad). Munira kaftlari bilan yuzini to'sganicha karavotda xomush o'tiribdi (U.Nazarov). Bu tog'larda yolg'iz qoldim "Layli va Majnun". Bir oqshom dovon oshib, tog'ning yonbag'rida, kichkina buloq bo'yida tunabdi (S.Yunusov) va boshqalar.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda holat fe'llari gapda zaruriy tobe komponenti - boshqaruvchi so'z formasisiz (masalan, lokalis valentligining realizatorisiz) qo'llanganda ham, o'rin munosabatini bevosita ifoda etish semantik (valentlik) qobiliyatiga ko'ra fe'llarning o'zi lokalisni ifodalab turadi. Bu hollarda lokalis aktanti muayyan vaziyatdan, kontekstdan umumiy tarzda bo'lsa-da, aniq anglashilib turadi[14]. Qiyoslang: Bashorat yolg'iz qoldi (S.Ahmad). Men o'zimni qattiq uxlaganga solib yotaverdim (S.Yunusov). Hushsiz yotibdi (U.Nazarov). Uzoq o'tirdi (M.Ismoilij). Ikkovi ham indamay o'tiraverdi ("Layli va Majnun").

Shunday qilib, kuchli boshqaruv valentlik munosabatiga kirishgan nutq birliklari orasidagi zaruriy, "majburiy" aloqa sifatida namoyon bo'ladi. Aniqrog'i, kuchli boshqaruv shunday aloqaki, bunda hokim (bosh) so'z leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra o'z qurshovida o'zi bevosita talab qilgan shaklda-muayyan grammatik formada muayyan tobe (ergash) so'zning ishtirok etishini qat'iy talab qiladi. Chunki ayni so'z formasi hokim so'z (fe'l) ma'no tomonini ochish, izohlash, aniqlash uning ma'no imkoniyatlarini ko'rsatish kabilar uchun xizmat qiladi. Binobarin, ana shunday aloqa zaruriy aloqa, zaruriy bog'lanish kuchli boshqaruv sifatida baholanadi[15]. Aytilganlardan kelib chiqib, kuchli boshqaruv sintaktik birliklar orasidagi zaruriy, kuchli aloqaning mavjudligi bilan o'lchansa, belgilansa, kuchsiz boshqaruv esa sintaktik birliklar orasida ayni aloqaning - kuchli zaruriy aloqaning mavjud emasligi, yo'qligi bilan belgilanadi. Demak, kuchsiz boshqaruvda sintaktik birliklar orasidagi aloqa, ushbu birliklarning bir-birini tortish kuchi, talab qilishi semantik planda bo'sh, kuchsiz, yetarli darajada ahamiyatli bo'lmaydi. Shunga ko'ra turmoq, tunamoq, yotmoq, qolmoq, o'tirmoq "davomli", to'xtamoq "harakat natijasi", salqinlamoq, poylamoq "ijro", gavidalanmoq "obrazli" integral semali holat fe'llaridan (kuchli boshqaruvdan) farqli tutashmoq "harakat natijasi", cho'nqaymoq "fiziologik" va o'ng'aysizlanmoq, uyalmoq "psixik" integral semali holat fe'llari lokalis valentligining realizatori bilan kuchsiz boshqaruv munosabatida bo'lishiga ko'ra ajralib turadi. Chunki ayni holat fe'llarining leksik ma'nosi (denotativ ma'nosi) tobe komponentning mavjudligi yoki mavjud emasligi bilan belgilanmaydi[16]. Shunga ko'ra ushbu holat fe'llarining lokalisni ifodalovchi so'z bilan bog'lanishi zaruriy, "majburiy", organik bog'lanish hisoblanmaydi. Yana qiyoslang: Zovur kolxoz yeriga bog' tomonidan tutashgan ("Toshkent haqiqati"). U chuqurning og'ziga cho'nqaydi (O'zbek xalq ertagi). O'qituvchilari oldida biroz o'ng'aysizlandi.(Guliston)

Xullas, "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llari lokalis valentligining realizatori bilan bog'lanish xususiyatiga ko'ra ko'pincha kuchli boshqaruvni hosil qilishi jihatidan kontragent valentligiga ega holat fe'llaridan farq qilsa, ba'zan ular (holat fe'llari) lokalis valentligini ifodalovchi so'z formalari bilan kuchsiz boshqaruv munosabatida bo'lishiga ko'ra kontragentga ega holat fe'llari bilan o'xshash bo'ladi.

Xulosa

1. Holat fe'llarining lokalis qatnashuvchisi agens (ba'zan kontragent) holatining sodir bo'lish o'rnini sifatida voqelashadi, lokal munosabat ifodalanadi.

2. Lokalisni qayd etuvchi so'zlar gapda ko'pincha o'rin kelishikli va ko'makchili shakllarda keladi. Ushbu kelishik ko'rsatkichi va muayyan ko'makchilar ot va fe'l ma'nolarini biriktiruvchi vazifa bajaradi, fe'l boshqaruvli so'z birikmasi tuziladi.

3. "Davomli", "harakat natijasi" va "ijro" integral semali holat fe'llarining otda qayd

etilgan lokalisi sath bo'ladi.

4. "Davomli", "harakat natijasi", "obrazli" "fiziologik" integral semali holat fe'llarining lokalisi ot+ko'makchi, ot+daqoli pidatuzilgan analitikformalardakelib, muayyan ma'no xususiyatlari bilan ajraliyu turadi.

5. "Davomli", "harakat natijasi", "obrazli" integral semali holat fe'llarining lokalisi oldida "davomli" integral semali holat fe'llarining lokalisi ustida, bo'yida, tagida, o'rtasida, boshida, yonida, ichida, ichra va uzra, "harakat natijasi" integral semali holat fe'llarining lokalisi orasida, tomonidan "fiziologik" integral semali holat fe'lining lokalisi og'zida (o'zbek tilshunosligiga oid qator manbalarda og'zida so'zi ot ko'makchi sifatida, umuman, tilga olinmaydi) kabi ko'makchili shakllarda keladi.

6. "Davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli" integral semali holat fe'llari (hokim komponent) lokalis valentligining realizatori (tobe komponent) bilan kuchli boshqaruv munosabatiga kirishadi.

7. Kuchli boshqaruv valentlik munosabatiga kirishgan nutq birliklari orasidagi zaruriy, "majburiy" aloqa sifatida namoyon bo'ladi.

8. "Harakat natijasi", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llari lokalis valentligining realizatori bilan kuchsiz boshqaruv munosabatiga kirishadi.



### Iqtiboslar/Snoski/References

1. Lokalis termini o'rin ma'nosini anglatadi. Bu termin N.I.Kondakovning "Логический словарь" (М., 1971. С.279); Д.Э.Розенталь, М.А.Теленковаларнинг "Словарь-справочник лингвистических терминов" (М., 1976. С.169) kitoblaridan olindi. Qarang: Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 1966, С. 222.
2. Lokal munosabat termini O.S.Axmanovaning "Словарь лингвистических терминов" (С.222); Д.Э.Розенталь, М.А.Теленковаларнинг "Словарь-справочник лингвистических терминов" (С.169) asarlaridan olindi.
3. Lokativ haqida qarang: Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. С.222; Иванова И.П., Бурлакова В.В. Теоретическая грамматика современного английского языка. М., 1981, С.245-246.
4. O'rin kelishikli so'z formasining o'rin tushunchasidan boshqa tushunchalarni ham berishi haqida qarang: Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М., 1969, С.101, 102; Мирзаева М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. Тошкент. 1978. 93-бет; Ўзбек тили грамматикаси. I. Тошкент. 1975. 242-248-бетлар; Ўзбек тили грамматикаси. II. Тошкент. 1976. 154-155-бетлар.
5. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М., 1969, С. 323.
6. Ўзбек тили грамматикаси. I. Т., 1975, 550-бет. Қаранг: Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1975, 240-бет.
7. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1980, 412-бет.
8. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. С.321.
9. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. С.307.; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 411-бет.
10. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 240-бет.
11. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. С.306.; Ўзбек тили грамматикаси. I. 551-552-бет
12. Qarang: Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. Т., 1978. 143-бет.
13. Qarang: Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис простого предложения. М.,1979, С.62.; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М., 1956. С.287
14. Qarang: Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис простого предложения. С.62.
15. Qarang: Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. С.285; Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв.). Л., 1980. С.216.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. С.487.; Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. С.500.
16. Qarang: Современный русский язык. II М.,1979, С.13. Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис простого предложения. С.62.
17. Mirzaev Ibodulla Kamolovich, Disadvantages of Translation Practice on to the Transmission of Words-Realia, Pages: 649-653 <http://jardcs.org/archivesview.php?volume=3&issue=36&page=3> DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/S20201076